

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrası professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlát Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



BYUDJYETDAN TASHQARI MABLAG'LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT XARIDLARINING ROLI

Norov Akbar Ruzimamatovich

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bo'lim boshlig'i,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining ahamiyati va roli masalasi yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarning ahamiyati va uni tasarruf etishda davlat xaridlarining ahamiyati o'zbek va xorij olimlarining tahliliy yondashuvlari o'rganildi. Maqolada monografik va ekspert hamda tizimli tahlil natijalariga asoslanib, mavjud moliyaviy resurslarni samarali tasarruf etilishida davlat xaridlarining roli, uning OTM moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kaliit so'zlar: oliy ta'lim, byudjetdan tashqari mablag'lar, vaqt birligi, nomaqbul xo'jalik yurituvchi subyektlar, valyuta kurslari, davlat xaridlari, xarid turlari, moliyalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, narx parametrlari, moddiy texnika bazasi, moliyaviy erkinlik.

Аннотация: В статье рассматривается значение и роль государственных закупок в повышении эффективности использования имеющихся финансовых ресурсов в высших учебных заведениях. Важность внебюджетных финансовых ресурсов в высших учебных заведениях и важность государственных закупок в управлении ими были изучены на основе аналитических подходов узбекских и зарубежных ученых. В статье по результатам монографического и экспертно-систематического анализа освещена роль государственных закупок в эффективном управлении доступными финансовыми ресурсами, их роль в обеспечении финансовой устойчивости высшего образования.

Ключевые слова: высшее образование, внебюджетные фонды, единица времени, неблагоприятные субъекты хозяйствования, курсы валют, государственные закупки, виды закупок, финансирование, субъекты хозяйствования, ценовые параметры, материально-техническая база, финансовая свобода.

Abstract: In the article is discussed the public procurement importance and role in improving the efficiency of available financial resources using in higher education institutions. The importance of extra-budgetary financial resources in higher education institutions and the importance of public procurement management were investigated on the bases of analytical approaches to Uzbek and international studies. On the basis monographic, expert and systematic analysis' results, there is highlights the role of public procurement in the effective management of available financial resources, its role in ensuring the financial stability of higher education.

Key words: higher education, extra-budgetary funds, unit of time, unfavorable business entities, exchange rates, public procurement, types of procurement, financing, business entities, price parameters, material and technical base, financial freedom.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida "2019-2022-yillarda iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,1 barobarga, shu jumladan, markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga 2,8 barobarga ortgan. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi investitsiyalar ulushi 2019-yildagi 21 foizdan 2022-yil yakuniga ko'ra 38 foizdan ko'proqqa o'sdi. Ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi hajmi 1,7 barobarga oshdi. Investitsiyalar va tashqi savdodagi yuqori faollik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining 1,24 barobarga, qurilishning 1,44 barobarga o'sishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,1 foizdan 33,2 foizgacha o'sdi"¹.



Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, barcha soha va yo'nalishlarda olib borilayotgan islohotlar natijasida o'sish kuzatilmoqda. Mazkur islohotlar zamirida milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, eksport salmog'ini ko'paytirish, import tovarlar hajmini kamaytirish, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan oqilona siyosat yotganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'lim tizimida olib boriladigan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri bu o'quv jarayonini isloh qilish va oliy ta'limning moddiy-texnik bazasini yaxshilashdir.

Jahon tajribasidan ma'lumki, mamlakatlarni rivojlanishi va taraqqiy etishi bevosita ilm-fanga e'tibor, ta'lim sohaning rivojlanishiga bog'liqligini ko'rish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari ham iqtisodiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadigan keng qamrovli iste'molchi va sotuvchi rolda namoyon bo'ladigan subyektlardan biri sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda, OTMlar ham o'z ehtiyojlarini "xaridorlar" sifatida ishlab chiqaruvchilar va ta'minotchilar orqali tanlov asosida ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotib olish tizimiga bevosita kiradi. Mazkur tizim jahon amaliyotida tan olingan tizimlardan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qo'yidagi xorijlik iqtisodchi olimlar davlat xaridlari sohasining rivojlanishi va takomillashtirilishining asosiy qoidalari, davlat xaridlari hisobini tashkil etish va ulaning oliy ta'lim tizimidagi samaradorligini baholash bo'yicha ba'zi jihatlariga e'tibor bergan holda ilmiy tadqiqot olib borgan, jumladan I.I.Smotrinskaya, S.A. Bordunova, A.I.Vorobieva, Ye.A. Mizikovskiy, E.A. Orlova, S.V.Pankova, A.A. Piskunov, K.V.Razuvaeva, T.M. Rogulenko, Y.V. Sokolova, I.A.Tulseva, A.E. Sheveleva, T.G. Sheshukova va boshqalarni keltirish mumkin. Mahalliy iqtisodchi olimlardan M.P.Yunusov, D.B.Qosimov, U.Urakov, U.Burxonov, Atamuradov ^[5] va boshqalarning ilmiy ishlarida mazkur masalalarga to'xtalib o'tilgan.

Shuning bilan oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligining ahamiyati va moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish borasida qator hal qilinmagan masalalarni yechish alohida ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil hamda ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligining ahamiyati va moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarining taraqqiy etishi va samaradorligining oshishi bevosita uning moliyaviy erkinligiga, mavjud moliyaviy resurslarning to'g'ri, maqsadli hamda samarali ishlatilishi masalasiga bog'liq ekanligi sir emas. Shu nuqtayi nazardan OTMlarda mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi bugungi kunning dolzarb va e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlaridan sanaladi. Respublikamiz miqyosidagi OTMlarda byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari va byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari asosiy moliyaviy manbalari sanaladi.

Mazkur mablag'larni samarali tasarruf etish maqsadida, OTMlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlashga, ta'limga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilishga, bino va inshootlarni mukammal va joriy ta'mirlash ishlariga yo'naltirishda bevosita o'rnatilgan tartibda, respublika tovar xom-ashyo birjasi orqali savdolarida qatnashish belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-472-son Qonuni talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, davlat xaridlari turlari va ularni amalga oshirish bilan bog'liq bir qancha normativ hujjatlar qabul qilingan.

Ma'lumki, OTMlarning moliyaviy erkinligi bevosita ularning rivojlanishi, taraqqiy etishi va sifatli, zamonaviy hamda erkin fikrlaydigan kadrlar yetishtirib chiqarishining asosiy, ustun bo'lgan omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, OTMlar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy texnika bazasini mustahkamlashga, oliy ta'lim sohasiga raqamli ta'limni joriy etish, bino va inshootlarni mukammal va joriy ta'mirlash uchun sarflanayotgan barcha mablag'lar o'rnatilgan tartibda Davlat xaridlari orqali tartibga solinishi yaxshi albatta. Biroq, davlat xaridlarining talablari OTMlarda byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarning samarali tasarruf etilishiga quyidagi jihatlarida o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti:

vaqt nuqtayi nazaridan: Chunki, respublikamizda amal qilayotgan bozor qonuniyatlari, raqobatning tez sur'atlarda jadallashuvi, iste'molchilarning talabchanligi ortayotgan hamda raqamli va masofaviy ta'limni joriy etish talab etilayotgan bir paytda zamonaviy multimedia, kompyuter texnologiyalarining aksariyat qismi xorijdan import qilinishini va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish hamda ishlab chiqarish jarayonini bu tarzda tezkor tashkil etish o'ziga xos qiyinchiliklar va to'siqlarni keltirib chiqarayotganligi ko'rishimiz mumkin.



Buni quyidagi 1-jadval misolida ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

1-jadval: 2022-11-15–2022-12-15-yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan xorijiy valyutalarga nisbatan o'zbek so'mining rasmiy kursi ^[3]

Vaqt	1 Dollar AQSh (USD)
2022-10-20	10371,76
2022-10-27	10359,88
2022-11-03	10366,86
2022-11-10	10378,88
2022-10-20	10371,76
2022-11-17	10390,93
2022-11-24	10414,86
2022-12-01	10427,38
2022-12-08	10443,07
2022-12-15	10463,12

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son, "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3550-son, "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3237-son, "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlar tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3166-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 185-son buyrug'i, Adliya vazirligi tomonidan 3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 456-son, "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-son qarorlarini ^[6] keltirib o'tishimiz mumkin bo'ladi.

2-jadval: Ba'zi OTMlarda davlat xaridlari orqali tuzilib bekor bo'lgan shartnomalar soni va summasi ^[7]

OTM nomi	Yillar	Bekor bo'lgan shartnomalar soni	Summasi, mln.so'm
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	2019-2022 yillar	18	986,8
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	2019-2022 yillar	8	352,6

OTMlar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xarid qilinadigan, asosiy vositalar (o'quv laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikalari va mebellar) tanlov qilish yoki tender orqali xarid qilinganda vaqtdan yutqazish holatlari ko'plab uchraydi. Shu bilan bir qatorda, tanlov o'tkazish maqsadida e'longa xona va tashkilotlarning barchasi ham to'g'rilik, halollik, shaffoflik prinsiplari asosida ishlaydigan hamda o'zining mavjud real tovar va xizmatlarini taklif etayotgan xo'jalik subyektlari deyish mushkul masalalardan. OTMlar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xarid qilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridlari jarayonini tashkil etish uchun vaqt birliklarini yo'qotayotgan bir paytda tovar xom-ashyo birjasida nomaqbul xo'jalik yurituvchi subyektlarga uchrayotganligi, ularning savdolarida shartnomalarning shartlarini to'liq, batafsil o'rganmasdan yutib olishlari, shartnoma shartlariga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni o'z vaqtida yetkazib bermasligi, ma'lum vaqt o'tishi bilan shartnomalarning bekor qilinishi kabi holatlarning ko'p uchrayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi OTMlarning xarid jarayoniga, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, ta'limi OTMlarda davlat xaridlari jarayonida uchrayotgan masalalar va moliyaviy resurslarning samaradorligini oshirish bilan bog'liq omillarga narx parametrlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sifatiga bog'liqligiga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Rossiyalik taniqli iqtisodchi olimlardan A.Yu.Guqinning tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan A.Yu.Gushin ^[4] quyidagi jadvalga ko'ra narx parametrlariga muvofiq ishlar, xizmatlar, tovarlarni yetkazib berish sifatini baholash mezonini ko'rsatib o'tgan.



3-jadval: Narx parametrlariga muvofiq ishlar, xizmatlar, tovarlarni yetkazib berish sifatini baholash

Narx ko'rsatkichini o'zgartirish	Sifat nazorati	Buyurtmachidan talab etiladigan harakatlar
$R < 5\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning yuqori sifati	Bu yerda hech qanday maxsus harakat talab etilmaydi
$5\% < P < 15\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning yuqori sifati	Hech qanday maxsus xarakat talab etilmaydi
$15\% < P < 25\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning o'rtacha sifati	Pudratchining shartnomani bajarishga e'tibori
$25\% < P < 35\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning ikkinchi o'rtacha sifati	Tanlov g'olibining shartnomani bajarishga alohida e'tibor
$P < 35\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning past sifati	Tanlov g'olibi tomonidan shartnomani bajarishga favqulodda e'tibor

Buyurtmasining zaruriy harakatlari - ushbu parametr, avvalombor bajarilgan ishlarni etkazib berilayotgan tovarlarni tanqidiy qabul qilishda va texnik nazoratni amalga oshirishda ifodalanishi mumkin bo'lgan harakatlarni, buyurt-machining yetkazib beruvchi tomonidan taklif etayotgan narxlariga munosabatini aks ettiradi. Bu jadvalda ko'rsatilgan, narx parametrlari ta'siri rivojlangan mamlakatlarda qurilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha narx parametrlariga baho berishda qo'llash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bergan statistik ma'lumotlariga nazar solinsa, 2022-yil 9 oyigida Davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar va davlat buyurtmachilarining davlat xaridlaridagi holatida quyidagi jihatlar ko'zga tashlanadi.

Ma'lumotdan ko'rinadiki, davlat xaridlari turlarida Yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning ulushi 39,9 foizni, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirilgan davlat xaridlarining ulushi 39,7 foizni tashkil etayotganligini ko'rinadi. Qolgan davlat xaridlari turlari bo'yicha ulushlar nisbatan kam foizni tashkil etmoqda. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, davlat xaridlarini amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri va yagona buyurtmachilar bilan shartnomalar tuzish davlat buyurtmachilarga qulaylik tug'diradi va mavjud moliyaviy resurslardan vaqt birligida samarali foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiy jarayonlarga va jahon moliya bozorigadadil integratsiyalashib borayotgan mustaqil respublikamizda bugungi kunda barcha jabhalarida bozor qonuniyatlari amal qilayotganligini, chuqur uylangan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar olib borilayotganligi hech kimga sir emas. Shu jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar, davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va qo'llab-quvvatlashlar samarasi ko'rinmoqda. Jahon tajribasidan ma'lumki, OTMLar ham iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi va subyekti sanaladi. Shu nuqtayi nazardan ularning moliyaviy mustaqilligi hamda mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi bevosita davlat xaridlariga bog'liq.

Yuqoridagi tahlillarda ko'rib o'tdikki, OTMLarning byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish yo'llarini takomillashtirish va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida, OTMLarning byudjetdan tashqari mavjud moliyaviy resurslarining samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, OTMLarda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridlarida ba'zi imtiyozlar berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan,

- byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ga to'g'ridan-to'g'ri shartnoma imzolanishiga ruxsat berishi;
- yagona yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish;
- byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qilinadigan joriy va mukammal ta'mirlash ishlari bo'yicha tender savdolari bo'yicha e'lon muddatini 10 kungacha qisqartirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi OTMLarda mavjud byudjetdan tashqari moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishga va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi degan fikrdamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son Qarori.
2. Трансформация системы государственных закупок в российской экономике: Автореф. дисс. док. экон. наук. - М.: 2009. - 56 с.
3. Бордунова С.А. Право и экономика, 2009. - N 1.
4. <https://cbu.uz/ru/arkhiv-kursov-valyut/>
5. Гущин А.Ю. Определение эффективности и способы её оценки в системе государственного заказа// Фундаментальные исследования. – 2012. – № 9-1. – С. 204-208; URL: [http:// www.fundamental-research.ru/ru/article](http://www.fundamental-research.ru/ru/article)
6. Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. –T.: "Fan va texnologiya". 2012.- 152b.
7. www.lex.uz milliy qonunchilik bazasi
8. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi va O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kom-munikatsiyalar universitetining hisobot ma'lumotlari.
9. <https://www.mf.uz/uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

